

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) 18-24
- Раунов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI
MISOLIDA) 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI
XIZMATLARI 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF
ENTERPRISES 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ	165-174

Гадоев Сўҳроб Жумакулович
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 175-181

Бекжанов Дилмурод Йўлдашович
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ 182-193

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) 194-200

Xayridinov Abbasxon Anvarovich
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 201-205

Quramboyev Alisher Maxsudovich
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI 206-211

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR
MAQSADI..... 212-217

Turabova Sevara Kattaqulovna
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV 218-224

Пардаева Марҳабо Давлатовна
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ 225-233

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI 234-240

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR 241-246

Юсупова Феруза Зойировна
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ 247-251

Teshaboev Muhiddin Marifovich
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI 252-257

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Soatova Nodira Isomitdinovna

LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI258-265

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA266-269

Yusupova Omina Muhammadzoir kizi

DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE270-276

Бозорова Хулкар Одинакуловна

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ277-282

Matyakubov Oybek Quralbayevich

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI283-288

Фатуллаева Камола Рахматуллаевна

ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ289-293

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI294-299

Xamzayev Otaxon Erkinovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI300-305

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ306-310

Сафоева Садокат Мусоевна

ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА311-320

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ321-330

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Zoirova Lola Xamidovna

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA)	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD	434-441
<i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	461-469

09.00.00- Фалсафа фанлари

Boydadaev Abdurroxmon Tolibjon o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti
Falsafa va mantiq kafedrası tadqiqotchisi
e-mail: a.boidadaev@gmail.com

**SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq va G'arb irratsionalistik falsafasida panteistik qarashlar o'rtasidagi o'xshashliklar J.Rumiy va F.Nitsshe ta'limotlari misolida ko'rib chiqilgan. Muallif birlamchi manbalarga murojaat qilib, ikki mutafakkir panteistik qarashlarining komparativistik tahlilini amalga oshirgan va ham Sharq, ham G'arb panteizmi har xil til bilan yagona mohiyatni aks ettirishga harakat qilayotganiga oid umumiy xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: panteizm, falsafa, irratsionalizm, intuitsiya, tafakkur, ong, iroda, ruh, muhabbat.

Boydadaev Abdurrokhmon Tolibjon ugli
Researcher of the Department of Philosophy and Logic
of the National University of Uzbekistan

**COMPARATIVE ANALYSIS OF PANTHEISTIC VIEWS IN THE IRRATIONAL PHILOSOPHY
OF EAST AND WEST (ON THE EXAMPLE OF THE PHILOSOPHY
OF J. RUMIY AND F. NIETZSCHE)**

Abstract. This article examines the similarities between irrationalist philosophical views in the East and the West on the example of the teachings of J.Rumi and F.Nietzsche. The author, referring to the primary sources, carried out a comparative analysis of the pantheistic views of the two thinkers and comes to the general conclusion that both in the East and in the West, pantheism expresses the same essence in different languages.

Keywords: pantheism, philosophy, irrationalism, intuition, mind, consciousness, will, spirit, love.

Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли
Соискатель кафедры философии и логики
Национального Университета Узбекистана

**КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ ПАНТЕИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ В ИРРАЦИОНАЛЬНОЙ
ФИЛОСОФИИ ВОСТОКА И ЗАПАДА
(НА ПРИМЕРЕ ФИЛОСОФИИ Ж.РУМИЙ И Ф.НИЦШЕ)**

Аннотация. В данной статье рассматриваются сходства между иррационалистскими философскими взглядами на Востоке и Западе на примере учений Ж.Руми и Ф.Ницше. Автор, обращаясь к первоисточникам, осуществил компаративистский анализ пантеистических взглядов двух мыслителей и приходит к общему выводу, что как на Востоке, так и на Западе пантеизм разными языками выражают одну и ту же сущность.

Ключевые слова: пантеизм, философия, иррационализм, интуиция, мышление, сознание, воля, дух, любовь.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N26>

Kirish. Bugungi falsafa fanida komparativistik tahlil usuli alohida o‘rin egallaydi, zero aynan shu usul orqali biz Sharq va G‘arb madaniyatlarini qiyosiy tadqiq etishimiz mumkin. Aynan komparativistika yordamida biz irratsional falsafada vujudga kelgan turli sharqiy va g‘arbiy ta‘limotlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlaymiz, ularning muloqoti uchun yo‘llarini o‘rnatamiz. 19 va 20-asr G‘arbiy Yevropaning irratsional faylasuflari F.Nitsshe va A.Bergsonlarning qarashlarida Sharq faylasuflarining panteistik qarashlariga ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lgan fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, Nitsshe va Rumiyning panteistik g‘oyalari, iroda haqidagi fikrlari ko‘p jihatdan o‘xshashdir va aynan shu o‘xshashliklarni ko‘rib chiqish orqali biz Sharq va G‘arb irratsionalizmi o‘rtasidagi muloqotni ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda muallif tarixiylik, germeneytik va qiyosiy hamda tizimli tahlil usullaridan foydalangan. Qiyosiy, ya‘ni komparativistik tahlil usuli ko‘rib chiqilgan mutafakkirlar ta‘limotining o‘ziga xos tomonlari, o‘xshashlik va farqlarini aniqlashga xizmat qilgan, zero, R.Karimov ta‘kidlashicha, aynan komparativistika turli falsafiy qarashlarni taqqoslashga qaratilgan [6].

Sharq va G‘arb falsafasini qiyosiy tadqiq etishga P.Masson-Ursel [16], P.T.Radju [18], S.Radxakrishnan [17], B.Rassel [19] kabi mutafakkirlar asarlari va mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan R.Karimov [15], G.Kabulniyazova [5], G.Ruzmatova [20], K.Saidova [12] va boshqa olimlarning ishlanmalari bag‘ishlangan. Shu bilan birga, ikki sivilizatsiyada shakllangan panteistik qarashlarni o‘rganishga A.Danto [4], G.Skirbekk, N.Gilye [14], K.Svasyan [13], I.Blauberg [2], V.Vizgin [3], V.Alimasov [1], Sh.Qaxxorova [7], U.Kerimov [8], G.Kabulniyazova [5] kabi olimlarning ilmiy ishlari qaratilgan.

Muhokama va natijalar. G‘arbiy Yevropa falsafasining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan F.Nitsshe tasavvurida ajoyib ruhiy siymolar bilan bir qatorda o‘tkir tanqidiy nigoh ham uchraydi. U o‘zidan avval utgan bir qator faylasuflarning asarlariga e‘tiborini jalb etib, ularda uchraydigan qadriyat va tushunchalarni qayta baholaydi va ishlab chiqadi [9, 352]. Bu tushunchalarga F.Nitsshe butunlay boshqa ma‘nolar beradi va nemis falsafasining zaminida yotgan ko‘pgina ratsional ta‘limotlarni ostin-ustun qilib yubordi. Masalan, tafakkur tushunchasini F.Nitsshe tanqid ostiga oladi va uning muqobili sifatida instinkt tushunchasini kiritadi. Bu tushunchaga, ya‘ni instinkt tushunchasiga Nitsshe butunlay yangi ma‘no beradi. Yevropa fani va falsafasida instinktlarni refleks deb hisoblab, inson fiziologiyasining ongsiz hissiyotlari deb tushunishgan. Nitsshe esa bu tushunchasiga mutlaq boshqa ma‘no berdi. Uning tasavvurida instinktlar ruhiy energiya shakli bo‘lib, insonning ongli va ongsiz faoliyatidagi iroda kuchini anglatadi.

Iroda deb tushunilgan instinktlar insonning ongsiz va ongli faoliyat shakllarini boshqaradi va tafakkurni ongli ravishda sodir bo‘ladigan intilish va maqsadlardan, majburiyatlardan farq qiladi. F.Nitsshe ijodidagi iroda J.Rumiyning tasavvuridagi irodaga o‘xshab, koinotning har bir nuqtasida mavjuddir [9, 353]. Iroda kuchi – tabiatdagi xilma-xil harakatlar asosida yotuvchi ruhiy kuchdir. Bu kuch ham tabiatda, ham inson faoliyatida mavjud. Tabiatdagi iroda kuchi ongsiz bo‘lib, u o‘z-o‘zini anglamaydi. U o‘simliklar, hayvonlar

harakatida, yer, suv va havoning o'zgarishida ham o'zini namoyish etadi. "Buyurdiki: Sigirlar ham ne'matlarga monandir va og'ilxonada bo'lganlari holda og'il egasi xushlagan narsalardir. Agar sohib xohlasa o'z molini shohning og'iliga olib borib qo'yadi, ibtidoda bo'lganidek, yo'qlikdan borliqqa keltiriladi. Borliq (vujud) og'ilidan jamoa og'iliga, jonsiz borliqlar og'ilidan o'simlik dunyosiga, undan hayvonlikka, hayvonlikdan insonlikka, insonlikdan malaklikka va shu so'ngsiz tarzda ilgarilatadi. U senga bularni bir-biridan ustun og'illar borligini qabul va e'tirof etmog'ing uchun ko'rsatgandir" [10, 28].

J.Rumiyning ma'rifat haqidagi fikrlari F.Nitsshening "Zardusht tavallosi" asaridagi ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlar va ustoz tomonidan beriladigan bilimlarga o'xshaydi. Rumiya ham, Nitsshe ham ma'rifat – bu ruhiy bilimlar bo'lib, faqat cheklangan doiradagi odamlarga beriladi. Bu ruhiy bilimlarni ustoz Rumiya hikmat deb ataydi va uni barcha odamlarga yetib borishi amri mahol deydi. Nitsshe ham o'zining a'lo inson haqidagi ta'limotini faqat ruhiyat yo'lida o'z hayotini va fikr yuritishini shakllantiradigan insonlargagina berilgan, deb hisoblaydi. Nitsshe ruhiy rivojlanishning uch bosqichi, ya'ni tuya, sahrodagi sher va bola timsollari J.Rumiyning inson ruhiy holatlarini tasvirlashdagi siymolarga o'xshab ketadi. Tasavvufda ham sabr-toqat tariqatning asosida yotgan ruhiy quvvatlardan biridir. Bundan keyingi bosqichda J.Rumiya o'lim oldidagi qo'rquvni yengish haqida gapirar ekan, u o'zining "Ichingdagi ichingdadir" asarida yo'lovchi va sher haqidagi mushohadalarni keltiradi. Ruhiy izlanishlar yo'lidagi inson ko'p qiyinchiliklarni yengib, oxir-oqibat sher bilan uchrashishi zarur, lekin har qanday yo'lovchi ham bu uchrashuvga tayyor emas ekanligi ko'rsatiladi. Nitsshening "Zardusht tavallosi" da ham faqat komillikka erishgan ruhiy ustoz sher bilan to'qnashadi va uni o'ziga bo'ysundiradi. Zardusht atrofida doimo sherni uchratish mumkin, u Zardushtning g'orini qo'riqlaydi va unga yaqinlashgan barcha yo'lovchilarni vahimaga soladi. Faqatgina Zardushtning o'zi bu vahimadan xalosdir. Uning atrofidagi barcha tirik mavjudotlar: osmondagi burgut, ilon, sher, kaptar, o'rmon, dengiz, shamol bularning barchasi Zardusht bilan suhbatlashadi va uning mehridan bahra oladi.

J.Rumiyning asarlarida ham barcha tirik mavjudotlar komil inson bilan foildirlar. Dengiz, osmon, yer, suv, havo – bularning barchasi ruhiy quvvatga ega. Bu quvvatni Rumiya ham, Nitsshe ham iroda deb atashadi.

"Rumiya insonni – daxliz, olamni esa uy deb atadi. Uyga kirishdan oldin daxlizga kirmoq zarurdir. Koinotni, olamni bilishdan oldin inson o'zligini bilishi kerakdir. Butun koinot insonning ichki olamida mavjuddir. O'z ichki olamiga kira olgan inson uchun koinotning barcha sirlari ochiladi" [11, 18]. Uyg'onish davri falsafasida aytilganidek, inson bu mikrokosmosdir.

Irodani ruhiy quvvat sifatidagi ta'rifini Nitsshe ham o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Uningcha, ruhiy poklikka inson faqatgina nafsni tiyish orqali erisha oladi. Bu kuch, F.Nitsshening fikricha, iroda kuchi bo'lib, u tashqi muhitni ham o'zgartirib yuborishi mumkin.

F.Nitsshening panteistik qarashlari tasavvuf ta'limotidagi panteizmga nihoyatda yaqin. Sharqda panteizm tushunchasi o'rniga uzoq o'tmishda xulul va ittixod tushunchasi ishlatilar edi. Bu tushuncha orqali so'fiya mazhabidagilar Allohni barcha yerda zuhur etishini, uning xas va cho'pda, osmon-u yerda tajaaliy etishini ko'rsatishadi. Nitsshe Alloh so'zini ishlatmasa ham, u tabiatning barcha ko'rinishlarida borliqning barcha nuqtalarida, zarrachalarida ruhiy quvvat sifatida iroda mavjud ekanligini ko'rsatib bergan. Uning bunday fikrlari o'z zamondoshlariga pardalangan shaklda ko'ringan va ular F.Nitsshe ijodiga xos bo'lgan ruhiy erkinlik g'oyalarini tub ma'nosiga yetib borisha olmagan. Bunga sabab bo'lgan omillardan biri F.Nitsshe

dunyoqarashiga xos bo'lgan nihoyatda o'tkir tanqidiy fikr yuritish uslubi edi. Tasavvuf ta'limotining ustozlarida bunday tanqidiy karashlarni biz uchratmaymiz. Ular o'z ichki dunyoqarashini rivoyatlar, Kur'ondagi oyatlarga tegishli bo'lgan mulohazalar va go'zal badiiy timsollar orqali kitobxonga taqdim etishadi.

F.Nitsshe falsafasida asosiy tushunchalardan biri – “hukmronlikka intilish irodasi” tushunchasi. Hukmronlikka intilish irodasi keng ma'noda ruhiy ijodiy quvvat sifatida tushunilib, ko'pgina so'fiylik ustozlarining diqqat e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Zotan, F.Nitsshe “hukmronlikka intilish irodasi” ta'limotini nasroniylik dini va axloqiga qarshi qo'ygan bo'lsa, so'fiylik ustozlari din va axloqqa qarshi oppozitsiyada turmaganlar, aksincha, diniy va axloqiy ta'limotni eng yuksak axloqiy qadriyat sifatida qayta ishlab chiqdilar. Ular nufuzli shaxslarga Qur'oni karimni o'zgarimas, aqida sifatidagi talqiniga ko'r-ko'rona ishonchni inkor etdilar. So'fiylikda ko'r-ko'rona e'tiqod o'rniga ruhiy muhabbatni, birinchi navbatda xudoga nisbatan bo'lgan shiddatli muhabbatni ilgari suradilar. Bu muhabbatga so'fiylikning to'rtinchi darajasida erishiladi. Hukmronlikka intilish irodasi ruhiy muhabbatning darajalaridan biri hisoblanadi, bu o'z ehtirolari, emotsiyalari va fikrlari ustidan hukmron bo'lish darajasidir.

Irodaning keyingi rivoji inson ruhiy energiyasini koinot energiyasi bilan qo'shilishiga olib keladi. Inson joni olamiy jon bilan qo'shiladi. Inson ruhiy kamolotining oxirgi bosqichini so'fiylar haqiqat deb ataydi. So'fiylar haqiqatni oddiy ratsional ongga qaraganda, butunlay o'zga ma'noda tushunadilar. Ratsionalizm haqiqat inson bilimining obyektiv xususiyatidir. So'fiylikda haqiqat inson ruhiy energiyasining butun borliq ruhiy energiyasi bilan qo'shilishidir.

So'fiylikda ruhiy borliq qanday tushuniladi? Quyida so'fiylikning ustozlaridan biri bo'lgan Jaloliddin Rumiy ruhiy borliqni qanday talqin etganligini ko'rib chiqamiz.

Rumiy ijodida borliq masalasi Sharq falsafasiga xos bo'lgan uslubda tahlil qilinadi. Sharqda borliq ko'proq ruhiy tomondan tushunilgan va insonning ichki olami bilan bog'langan. Oddiy kundalik dunyoqarashni oladigan bo'lsak, biz borliq deganda inson atrofini o'rab turgan barcha mavjud narsalarni tushunamiz. Bu asosan moddiy narsalar bo'lib, yo tabiatdagi narsalar yoki inson faoliyati natijasida yaratilgan narsalardir. Bundan tashqari, oddiy ong darajasida inson tafakkuri tomonidan yaratilgan g'oyalar, fikrlar, tushunchalar ham ruhiy borliq deb hisoblanadi. Rumiy ijodida borliq o'zgacha tushuniladi. Oddiy ong darajasidan uning farqi nihoyatda kattadir. Borliq Rumiy uchun eng birinchi navbatda ruhiy xususiyatga ega va insonning ichki olami bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, inson tasavvuridagi xayollar va ruhiy holatlar ham borliq deb tushuntiriladi. Masalan, Rumiyning aytishicha, “Olam xayol bilan qoimdir va ko'ringani, his etilgani uchun uni haqiqat, deya o'ylaysan. Holbuki, olam sen xayol degan ma'nolarning bir nuridir, xolos. Xayol bo'lgan narsaga aksincha qaralsa, u olamning aynan o'zidir” [10, 107].

Insondan tashqaridagi olam uning ichki olamida aks ettiriladi va bu ikkala olam yagona bir narsadir. Bu ikki olamni birlashtiruvchi inson esa o'zining ruhiy qudrati orqali olamga nur taratib turadi va olam mohiyati inson ruhiy hayotining mohiyati orqali ochiladi. Rumiyning fikricha, inson Tangrining usturlobidir va bu usturlobda butun olam ko'rinadi. Inson olamdagi barcha mavjudotlarning birligini o'zining ruhiy borlig'ida aks ettiradi. Insonning ruhiy borlig'i undagi ilohiy kuchdir va bu kuch olamdagi barcha narsalarni birlashtiradi. Lekin bu kuchdan hamma insonlarning foydalanishi nihoyatda mushkul. “Inson Tangrining usturlobidir (teleskopidir). Faqat bu usturlobni biladigan munajjim lozim. Dehqon yoki baqqolning usturlobi bo'lgani bilan uni ishlata olmaganidan keyin nima foydasi bor?” [10, 108].

Inson olamning moddiy ne'matlariga qattiq bog'lanib qoladi, mol-u davlatga ko'ngil qo'yadi. Bularning barchasi esa o'tkinchi va uning ruhiy kuchining zaiflanishiga olib keladi. Natijada inson o'zining ruhiy borlig'idan ajralib qoladi, nafs va hirs dengizida g'arq bo'ladi. Rumiylar olamni ko'pikka o'xshatadi. Bu ko'pikning o'zgarishi olamning o'tkinchiligini eslatadi [10, 109].

Hayot ummonining tubida ajoyib bir dur yashiringan. Bu dur o'zi nima? Rumiylar ko'ra, bu insonning pok qalbidir. Olimlar ayrim narsalarning tashqi ko'rinishini tinimsiz o'rganishadi va butun diqqatini moddiylikka qaratishadi. Natijada esa, ularning o'zligini tashkil etgan ichki ruhiy hayoti e'tibordan chetda qolib ketadi. Aynan bu esa, olamning javohiridir. Inson o'z tanasini oziqlantiradi, uni ovqat va kiyim bilan ta'minlaydi. Tana bu otdir, inson esa, bu otning ustidagi chavandoz. Otning yem-xashagi insonga to'g'ri kelmaydi [10, 110]. Insonning ruhiy borlig'i o'ziga ruhiy ozuqa talab etadi. Bu ozuqa shakli namozda mavjud, lekin uning mohiyati namoz bilan belgilanmaydi. Inson qalbidagi Allohga bo'lgan benihoyat kuchli mehr inson vujudini istig'roq holatiga keltiradi. Bu holatda esa inson namozsiz ham Tangrining nuri bilan birlashadi. Bu ilohiy nur bilan birlashishi inson vujudi uchun asosiy ruhiy ozuqadir. Bu yerda Rumiylar istig'roq deb tilga olgan holni ekstaz deb atasak bo'ladi. Ekstaz holatida inson vujudidan nihoyatda kuchli ruhiy quvvat o'tadi va inson barcha narsalarni unutadi. Eng avvalo, o'zligini unutadi va ilohiy nur bilan birlashib ketadi. Aynan shu Holni Rumiylar Mansur Hallojdan so'ng "Anal Haq!" deb atagan. Insonning borlig'i, ichki olami butun olam bilan birlashib ketadi va nurga aylanadi. Bu hol so'fiylarda samoviy zikr vaqtida kuzatiladi. Lekin istig'roh holatiga barcha insonlarning yetishishi mushkuldir. Ular ruhiy rivojlanish jarayonining har xil bosqichlarida turganligi uchun ruhiy jihatdan bir-biridan farq qilishadi. Bu farq valiylar va nabiyalar, zohidlar va oriflar tushunchalarida aks ettirilgan. Valiylardagi ruhiy qudrat, Rumiylar fikricha, oddiy odamlarnikidan 150-160 barobar kuchliroqdir. Aynan ana shu ruhiy kuch inson hayotining mohiyati bo'lgan ijodkorlik qobiliyatini belgilaydi. Ijodkorlik qobiliyatining o'zi ham buyuk ruhiy qudratdir. Bu qobiliyatni Alloh na yer-u ko'kka, na hayvonlar-u o'simliklarga berdi. Unga faqat insongina loyiq deb bildi. Demak, insondagi ruhiy qudrat uni yaratuvchi, ijodkorga aylantiradi.

Lekin inson o'z ichida yashiringan ijodkorlik kuchini doimo yuzaga chiqara olmaydi. Ana shunda u xuddi qimmatbaho pichoqni qovoqni yorish uchun ishlatgan kimsaga o'xshab qoladi. "Chunki insonni boshqa ishlar uchun yaratmadi. Bu shunga o'xshaydi. Sen shohlar xazinalarida qimmatbaho po'latdan tayyorlangan hind qilichini, "Men bu qilichni bekor yotmasligi uchun turli ishlarda ishlataman" deya keltirib, osh pichog'i o'rnida go'sht to'g'rasang yoxud oltin idishda sholg'om pishirsang yo javhar bilan bezatilgan pichoqni mix o'rnida qoqib, unga oshqovoq ossang uvol bo'lmasmi, odamlar kulmasmi?" Holbuki, qovoqning ishi bir pullik taxta yoki temir bir mix bilan ham bitadi. Shunga yuz dinorlik pichoqni ishlatish aql ishi emas-ku! [10, 120].

Har bir insonga ulug' bir ne'mat berilgan. Bu ne'mat undagi ijodkorlik ruhiy kuchdir. Bu kuchni yuzaga chiqarish insonning eng asosiy vazifasidir. Bu yo'lda unga ko'p narsalar to'siq bo'ladi. Shulardan eng asosiysi moddiy olam ne'matlariga bog'lanib qolishdir. Nafs va hirs insonni ruhiy ozuqadan mahrum qiladi va uni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi. Inson o'z hayotini arzimagan mayda-chuyda ishlarga bag'ishlaydi va uning qalbida qandaydir azoblanish, iztirob chekish hissiyoti paydo bo'ladi. Bu hissiyotni yengish uchun, Rumiylar fikricha, inson o'z jonini ham, molini ham Alloh yo'liga bag'ishlashi lozim. Buni qanday tushunmoq kerak?

Inson o'z hayoti davomida yiqqan molu-davlatga hirs qo'ymasligi kerak. Aks xolda undagi ijodkorlik faoliyati so'nadi va inson ichidagi eng katta mulk – qalbidagi mehr-muhabbatdan ajralib qoladi. Rumi uchun Alloh yo'lidan yurish bu qalbdagi ilohiy muhabbatni his etish, uni avj oldirishdir. Aynan shu muhabbat nuri insonga asosiy ruhiy ozuqa beradi va inson atrofidagi barcha narsalarning yashiringan go'zal siymosini ko'rishga imkoniyat beradi. Bu go'zallik esa, butun olamning naqshi bo'lib, unda Allohning jamoli yashiringan. Lekin bu go'zallik niqob ostida yashiringan. Faqat inson qalbidagi muhabbat hissiyoti bu niqoblarni ochib tashlashi mumkin. Demak, Rumiyning fikricha, Alloh yo'lidan yurish, inson qalbidagi Allohga bo'lgan muhabbat orqali sodir bo'ladi. Shundagina insondagi ijodkorlik qobiliyati ochiladi. Inson o'z hayoti davomida shug'ullangan har xil ishlarga mehr qo'yishi mumkin va bu uning ijodining ochilishiga olib keladi.

Lekin bu ijodkorlik chegaralangan bo'ladi. Haqiqiy yaratuvchilik kuchi esa cheksiz va chegarasizdir. U insonga katta hayotiy kuch berib, hayotning o'zi bilan qo'shib ketadi va hayotning zaminida yotgan jo'shqinlik kuchiga aylanadi. Aslini olganda, hayotning o'zi ham yaratish, ijod qilishdir. Shuning uchun J.Rumi aqliy ijodkorlikni ruhiy ijodkorlik kuchidan ajratadi. Aqldagi ijodkorlik bu narsalarning in'ikosini topish va yangi-yangi narsalarni yaratishdir. Lekin bu ijodkorlik aql doirasi bilan chegaralanib qoladi. Ruhiy ijodkorlik esa, bu barcha narsalarning zaminida yotgan ruhiy kuchni o'z ichki olamida kashf etish va shu ruhiy kuch orqali butun borliq bilan qo'shib ketish, komillikka erishishdir.

Olimlarning bilimni Rumi chegaralangan deb hisoblaydi. Ular narsalarning faqat ayrim tomonlarini, xususiyatlarini bilishadi. Ular qimmatbaho uzukning ayrim belgilarini to'g'ri aytishsa ham, uning asl qiyofasini topisha olmaydi va qo'lga sig'maydigan g'alvirga o'xshatishadi. Narsalarning mohiyati esa ularning zoti bilan tengdir. Inson qalbigina narsalarning mohiyatidan xabardordir. Lekin buning uchun inson qalbi pok va ravshan bo'lmog'i kerak. Dard va sitam qalbni poklaydigan eng buyuk ruhiy kuchlardir. Dard darddan farq qiladi. Agar inson o'z "men"ligini yo'qotmasdan dard cheksa, bu dard uni poklikka olib kelmaydi. Lekin inson "men"ligini yo'qotib butun borlig'ini, vujudini boshqa vujudga birlashtirsa, natijada bunday dard va sitam, ya'ni o'z "men"ligidan voz kechish dardi ruhiy poklikka olib keladi. Demak, J.Rumiyning fikricha, haqiqat inson tafakkurida emas, balki inson qalbidagi ilohiy nurdadir. Bu nur esa, insonning fikrlari, so'zlari orqali emas, uning ruhiy quvvati asosida qilinayotgan xatti-harakatlarida bilinadi.

Shunday qilib, J.Rumiynig fikricha, ilohiy-ruhiy muhabbat orqali haqiqiy inson borlig'ining mazmuni ochiladi. Bu durdona fikrlar Mavlono Rumiyning "Ma'naviy masnaviy", "Ichingdagi ichingdadir" kabi asarlarida o'zining to'la ifodasini topgan.

Xulosa. Demak, yuqorida qilingan tahlildan ko'rinib turibdiki, F.Nitsshe ijodidagi hukmronlikka intilish irodasi g'oyasi, uni irratsional tushunishning g'arbiy-evropacha talqinidir, farqi esa ruhiy amaliyot tajribasiga ega emasligidadir. Lekin amaliyot esa kishilarning hissiyotlarini va fikrlarini nazorat qilish va boshqarishga chorlaydi. Ming afsuslar bo'lsinkim, qanchalik noyob iste'dodga ega bo'lsa ham F.Nitsshe to'la ichki xotirjamlikka va fikr sokinligiga erisha olmadi. Bu muvozanatli holat, ko'pincha oddiy ongda befarqlik, beparvolik sifatida tushuniladi. Aslida esa, fikr sokinligi, inson xotirjamligi, mutanosiblik holati ichki ruhiy kuchni yuqori darajada jamlanishiga, hissiyot va emotsiyalarni inkor etmasdan, balki ruhiy energiya yig'indisining kuchayishiga olib keladi. Avvalgi falsafiy nazariyalar va ta'limotlar tomonidan ilgari surilgan ong imkoniyatlarini chegaralagandan ko'ra, aksincha, intuitiv ijodiy

jarayonga o'z o'rnini bo'shatib berishi kerakdir. Bunda inson fikri bo'laklarga bo'lib tashlanmaydi, aksincha, hissiy-emotsional holatda inson ruhiyatini uyg'unlashtiradi. Demak, ruhiyat yagonaligini his etish uchun ratsional dunyoqarashdan voz kechish kerak. Ongsizlik ekstaz darajasiga ko'tarilishi lozim. Ekstaz holatida inson "ego"si parchalanib ketadi, ong holatida beqiyos kenglik yuz beradi. Bunday amaliyot falsafiy ta'limotlar tizimiga kirmaydi. Bunday holat turli yo'nalishdagi so'fiylar va yogalarning hayot tarzini ifodalaydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. Гносеологик изланишлар. – Тошкент: Ношир, 2008. – 256 б.
2. Блауберг И.И. Анри Бергсон. – М.: Прогресс-традиция, 2003. – 672 с.
3. Визгин В.П. Анри Бергсон и экзистенциальная мысль. // Вопросы философии. – 2004. – №10. – С. 157-165.
4. Данто А. Ницше как философ. – М.: Идея-Пресс, 2000. – 280 с.
5. Кабулниязова Г.Т. Шарқ фалсафаси ва Ғарб иррационализмида руҳий муҳаббат ва интуиция тушунчаларининг қиёсий таҳлили // Шарқ фалсафаси ва Ўзбекистонда ижтимоий тафаккур ривожини Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ЎЗМУ, 2012. – Б.93-98.
6. Каримов Р.Р. Парадигмы философской компаративистики. – Ташкент, 2021.
7. Керимов У. Л. Как говорил Заратустра? (Герменевтика труда Ф. Ницше «Так говорил Заратустра»). – Ташкент: Санъат, 2010. – 453 с.
8. Каххарова Ш.Б. Глобал маънавият глобаллашувнинг ғоявий асоси.-Тошкент: Тафаккур, 2009. – 720 б.
9. Ницше Ф. Воля к власти. – Минск, 1999. – 464 с.
10. Румий Ж. Ичиндаги ичингдадир. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 314 б.
11. Румий Ж. Маснавийи маънавий. – Тошкент-Техрон: Фан, Ал-Ҳудо, 2003.
12. Саидова К.У. Философия культур Востока и Запада и их историческая значимость для современного общества // VII International correspondence scientific specialized conference "International scientific review of the problems of philosophy, psychology and pedagogy". – Boston, 11–12 ноября 2018 года. – С.9-11.
13. Свасьян К.А. Эстетическая сущность интуитивной философии А. Бергсона: дисс... канд. филос. н. – Ереван, 1978. – 120 с.
14. Скирбекк Г., Гилье Н. История философии. – Москва: ВЛАДОС, 2001. – 800 б.
15. Karimov, R., Naumenko, O., Saidova, K., Elmuratov, R., & Bekbaev, R. (2022). The phenomenon of education in the context of an intercultural philosophical approach. *Wisdom*, 24(4), 84–90. <https://doi.org/10.24234/wisdom.v24i4.941>.
16. Masson-Oursel P. Comparative Philosophy. – London: Kegan Paul, 1926. – 220 p.
17. Radhakrishnan S. East And West: Some Reflections. – Whitefish: Kessinger Publishing, 2010. – 140 p.
18. Raju P.T. Introduction to Comparative Philosophy. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1962. – 364 p.
19. Russel B. Problem of China. – London: Allen&Unwin, 1922. – 260 p.
20. Ruzmatova G., Karimov R. Falsafiy komparativistika. – Toshkent, 2021. – 180 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).